



TURIZM STATISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURIZM YORDAMCHI HISOBLARINING O'RNI

Jumayev Akbar Mahmudovich,

*PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrası dotsenti, Toshkent,
O'zbekiston. E-mail: akbar.jumayev@tsue.uz
ORCID: 0000-0001-8935-032X*

THE ROLE OF TOURISM SATELLITE ACCOUNTS IN IMPROVING TOURISM STATISTICS

Jumayev Akbar Makhmudovich,

*PhD, Associate Professor of the Department of "Economic Statistics" Tashkent State University
of Economics, Tashkent, Uzbekistan. E-mail: akbar.jumayev@tsue.uz*

ORCID 0000-0001-8935-032X

JEL classification: Z3 H10

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyotida turizm jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan raqobatbardosh sohalardan biriga aylandi. Xalqaro darajada turistlar soni 1,8 mlrd. kishiga yetdi. Turizm tushumlari 1,7 trillion AQSh dollarlik ko'rsatkichga erishib jahon eksportining 7 foizini, xizmatlar eksportining 29 foiziga tengdir. Jahon eksportida turizm tushumlari kimyo sanoati va yoqilg'i energetika eksportidan keyin uchinchi o'rinni egallagan. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarida turizm asosiy o'rinni egallamoqda. Buning natijasida jahonning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyoti tarmoqlarida turizmni innovatsion rivojlanishi bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonning turli mamlakatlarida turizm salohiyatini oshirish, yangi xizmatlarni taklif etish, yangi turizm brendlarini yaratish, turizm sohasining raqobatbardoshligini tubdan oshirish, turizm sohasini statistik tadqiqoti hamda turizmni innovatsion rivojlanishini statistik baholash bo'yicha keng qamrovli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda turizmni statistik

baholash masalalar yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa tadqiqotlarda turizm geografiyasini yanada kengaytirish, mamlakatlar iqtisodiyotida, xususan, yalpi ichki mahsulotida uning ulushini oshirish hamda turizmning rentabelli sohalardan biriga aylantirish kabi vazifalarni dolzarb qilmoqda. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga, uni iqtisodiyotda tutgan o'rnini baholashga va turizm statistikasini jahon xalqaro tashkilotlari va standartlari asosida yuritishga katta e'tibor berilmoqda. «Butunjahon turizm tashkiloti, shu jumladan xalqaro tajriba va standartlar asosida turizm sohasida statistika yuritishni takomillashtirish zarur» alohida ta'kidlangan. Bu esa turistlar oqimini ko'paytirish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirish, hamda eng asosiysi turizm statistikasini yuritishni xalqaro standartlar talabi bo'yicha tashkil etish va turizm statistik baholash uslubi-yatini yaratish kabi vazifalar qo'yilmoqda. Shu jixatdan bugungi kunda bu borada ilmiy

tadqiqotlarni olib borishni zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda.

Abstract: Tourism has become one of the most rapidly developing and competitive sectors in the global economy. At the international level, the number of tourists has reached 1.8 billion people. Tourism revenues have attained \$1.7 trillion, accounting for 7% of global exports and 29% of service exports. In global exports, tourism revenues rank third after the chemical industry and fuel and energy exports. Tourism occupies a leading position in the key sectors of world economies. As a result, the innovative development of tourism in economic sectors of most countries worldwide remains one of the most important tasks today.

In various countries around the world, extensive scientific and practical research is being conducted on increasing tourism potential, offering new services, creating new tourism brands, radically enhancing the competitiveness of the tourism sector, performing statistical research of the tourism industry, and statistically assessing the innovative development of tourism. Research has not sufficiently addressed the issues of statistical assessment of tourism. This makes it relevant to further expand the geography of tourism in studies, increase its share in national economies, particularly in the gross domestic product, and transform tourism into one of the profitable sectors.

In Uzbekistan, great attention is being paid to developing tourism, assessing its role in the economy, and maintaining tourism statistics based on international organizations and standards. It has been specifically emphasized that "it is necessary to improve the maintenance of statistics in the field of tourism based on the World Tourism Organization, including international experience and standards." This sets forth tasks such as increasing tourist flows and

expanding the export of tourism services, raising employment levels by creating new jobs in the industry, and most importantly, organizing tourism statistics in accordance with international standards and developing a methodology for the statistical assessment of tourism.

Kalit so'zlar: turizm tushumlari, turizm iste'moli, turizm yordamchi hisobi, turizm statistikasi, prognoz metodlari

Keywords: tourism revenues, tourism consumption, tourism satellite account, tourism statistics, forecasting methods

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab aholining moddiy farovonligini o'sishi va transportni rivojlanishi (xususan, havo va temir yo'l) bilan ichki va tashqi turizm rivojlana boshladi. Hisob-kitoblarga qaraganda, 1950 yillarda dunyoda 25 mln. xalqaro turist mavjud bo'lgan, turizm sohasi 2,1 mlrd. AQSh dollarlik daromad keltirgan bo'lsa, 1960 yil va 1970 yillarda ushbu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 70 mln. va 130 mln. kishiga, daromad esa 12,2 va 40,3 mlrd.ga yetgan[1].

Turizm aholini ma'naviy va ijtimoiy o'sishiga ta'sir qilishi bilan bir qatorda, yaxshi daromad manbaasi ekanligiga ma'lum bo'lishi bilan ko'pchilik mamlakatlar uni rivojlantirishga katta e'tibor berdi va natijada davlatlarda iqtisodiyotning yangi tarmoq – turizm tarmog'i paydo bo'ldi. Turizm atamasi ingliz tilidagi "tour" tashrif ma'nosini anglatadi va bugungacha unga berilgan ta'riflar turli tuman. Unga dastlabki ilmiy ta'rif 1941 yilda Shvesiya olimlari W. Hunziker va K. Kraftlar[2] tomonidan berilgan. Ularning fikricha, insonlarning doimiy yashash joyidan boshqa joylarga daromad olish va doimiy yashash maqsadlaridan tashqari boshqa safarlarini amalga oshirish turizm deb atalgan. Lekin, ushbu ta'rifda vaqt omilini hisobga

olmaganligi uchun unga nisbatan ko'plab tanqidiy munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Bunga qaramasdan, umuman olganda Shvesiyalik olimlarning turizm tadqiqotida hissasi juda yuqori. Masalan, ular turizm sohasiga birinchilardan bo'lib ilmiy yondashdilar va fundamental ilmiy tadqiqotlar uchun asos yaratdilar. Bu holatni ko'pchilik (E.Cohen, G.Pearce, R.Sharpley, R.W.Butler v.b.) tan oladi.

Respublikada ham turizmni tadqiqotlari olib borilgan va borilmoqda (I.S.Tuxliev, F.Q.Komilova, S.S.Ro'ziev, M.J.Temirxonova, Sh.R.Fayzieva, B.S.Safarov, N.N.Safarova, Ye.Golysheva, A.Saidov, T.Tashmuradov v.b.). O'zbekistonlik tadqiqotchilarni turizmga bergan ta'riflarida ham yakdillik yo'q. A.F.Saidovni fikricha [3]: «Turizm odamlar ehtiyojini qondirish uchun turli xil tovarlar va xizmat turlaridan foydalaniladigan o'ziga xos iqtisodiy sohadir».

Olimlarni fikr-mulohazalari bilan bir qatorda turizmga rasmiy tashkilotlar tomonidan ta'riflar ham berilgan. BMT Statistika qo'mitasining 1953 yilda bo'lgan konferensiyasida «xalqaro tashrif buyuruvchi», 1963 yildan esa «tashrif buyuruvchi», «turist», «ekskursant» va boshqa tushunchalari xalqaro amaliyotga kiritildi. Unga ko'ra: - tashrif buyuruvchi - bu o'zining odatiy muhitidan biror belgilangan asosiy joyga, tashrif buyurayotgan mamlakatda yoki joyda ishga joylashish maqsadidan tashqari, har qanday maqsadni ko'zlab, bir yildan kam bo'lgan muddatda safarni amalga oshiruvchi sayyohatchidir. - turist - bu safarda jamoaviy va yakka tartibdagi joylashtirish ob'ektlarida kamida bir kecha tunab qoladigan safar qiluvchidir. - ekskursant yoki bir kunlik tashrif buyuruvchi - o'zining odatdagi turar joyidan boshqa biror

bir joyga qisqa muddatda va tunab qolishsiz safar qiluvchi shaxsdir.

Turistlarni uchetga olishda BMTning rasmiy statistik organlari hamda mahalliy statistik organlari roli beqiyosdir. Xalqaro darajada statistik hisobga olish ishlari BMT tomonidan boshqarib boriladi. Uni qoshida BTT tuzilgan (1976 yil). Ushbu tashkilot to'rtta boshqarmadan tashkil topgan. Ularning ichida Statistika boshqarmasi statistik muammolarni o'rganib, ularga yechim topadi va barcha davlatlarga tavsiyalar beradi. Shu bilan bir qatorda BTT boshqa rasmiy tashkilotlar va davlatlar bilan uzviy bog'langan. Asosiy boshqaruv BMT tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni u xalqaro tashkilotlarga tavsiyalar beradi va ulardan davlatlar va BTT orqali hisobotlarni qabul qiladi.

Material va metod. Statistik ko'rsatkichlar tizimi o'rganilayotgan sohani viloyat, mintaq va mamlakat darajasida rivojlanishini to'liq va har tomonlama xarakterlay olishi, uning ichki xususiyatlarini ochib berishi, mavjud statistik tendensiyalarni aniqlay olishi, eng asosiysi ushbu sohasini mamlakat aholisini hayot sifatini ijobiy o'zgarishiga ta'sirini baholay olishi zarur [4].

Ayrim olimlarning (A.M.Hjalager [5]) fikricha yuqoridagi ko'rsatkich larni aniqlashdan oldin turizmni innovatsion rivojlanshini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash taklif etilmoqda. Bunga sabab yuqoridagi tadqiqotchilarni fikricha, innovatsion rivojlanish turizmni avvalo barqaror sohaga undan so'ng raqobatdosh sohaga aylantiradi.

Bizning fikrimizcha, tanlanma so'rovnomalari va hisobotlar xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqilib va takomillashtirilishi zarur, chunki aynan so'rovnomalari va hisobotlar to'plangan ma'lumotlarni ishonchliligi va

reprezentativligini oshiradi. Turizmni rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlashda Turizm yordamchi hisoblari(TYoH) juda muhim va asosiy manbalardan biridir. Turizm yordamchi schetlari hisobi deb ba'zi adabiyotlarda Satelistik schetlar tushuniladi. Satellite ingliz tilidan tarjima qilinganda yo'ldosh degan ma'noni bildiradi, iqtisodiyotda bu yordamchi hisoblar ma'nosida qo'llaniladi. Turizm sohasining yordamchi hisoblari orqali tahlili qilinishiniingng asosiy sababi turizm aniq bir tarmoqda joylashmaganligidadir. Turizm yordamchi hisobi jadvallar orqali turli tarmoqlardan ma'lumotlarini yig'ib keyin tahlil qiladi.

Turizm yordamchi hisobi(TYoH) Milliy hisoblar tizimining muhim hisoblaridan biri bo'lib, uni O'zbekiston milliy statistika amaliyotiga to'liq joriy qilish hamda TYoH ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish iqtisodiyotimizning strategik sohasi

hisoblangan turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy huquqiy shart-sharoitlar yaratish, turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish imkonini beradi.

Natijalar. Ushbu hujjatda yuqoridagi keltirilgan tushunchalarning ta'rifi hamda hisoblash uslubiylati batafsil yoritilgan. Ko'pchilik davlatlarda turizm rivojlanishi bilan 1993 yilda qabul qilingan tavsiyalar XXI asrni boshlariga kelib eskirganligi va zamon talablariga to'liq javob bermasligi ko'rinda boshladi. Shu munosabat bilan, 2008 yilda BMT, BTT, Yevrostat va boshqalar hamkorligida turizm statistikasi bo'yicha xalqaro standart yaratildi. Ikkala hujjatni har tomonlama tahlili shuni ko'rsatadiki, 2008 yilda qabul qilingan standart ancha takomillashgan va 1993 yildagi hujjatga nisbatan ijobiy farqlarga ega. Bizni fikrimizcha, 2008 yildagi xalqaro turizm statistik tavsiyalar1993 yildagi hujjatga nisbatan quyidagi farqlarga ega




1-rasm. O'zbekiston Respublikasiga kirish turizmi iste'moli, mln so'm

2019–2023 yillar davomida O'zbekistonga kirish bo'yicha turizm iste'moli sezilarli darajada o'zgarib bordi. 2019 yilda bu ko'rsatkich 11 639,3 mlrd

so'mni tashkil qilgan bo'lsa, pandemiya ta'sirida 2020 yilda keskin pasayib, atigi 2 489,9 mlrd so'mni tashkil etdi. 2021 yilda bu ko'rsatkich biroz tiklanib, 4 492,9 mlrd

soʻmga yetdi. 2022 va 2023 yillarda esa turizm sohasida barqaror oʻsish kuzatilib, mos ravishda 17 776,7 mlrd va 25 169,2 mlrd soʻmni tashkil etdi. Ushbu raqamlar Oʻzbekistonda turizm sohasining tiklanishi

va rivojlanib borayotganini, shuningdek, xalqaro sayyohlar oqimining izchil ortib borayotganini koʻrsatadi.



2-rasm. Turizm sohasida bandlik, kishi

2019–2023 yillar davomida Oʻzbekistonda turizm sohasida bandlik koʻrsatkichlari nisbatan barqaror saqlangan boʻlib, bu sohaning iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. 2019 yilda turizmga band boʻlganlar soni 231,4 ming kishini tashkil qilgan boʻlsa, pandemiya davrida bu koʻrsatkich 2020 yilda 190,8 ming kishigacha qisqardi. Shunga qaramay, keyingi yillarda asta-sekin tiklanish kuzatilib, 2021 yilda 208,1 ming, 2022 yilda 214,6 ming va 2023 yilda 215,7 ming kishiga yetdi. Bu dinamika Oʻzbekistonda turizm sektorining iqtisodiy inqirozlardan soʻng oʻz salohiyatini tiklayotganini va bandlikka ijobiy hissa qoʻshayotganini koʻrsatadi.

2000 yilda qabul qilingan hujjatga 2008 yilda judda katta oʻzgartirishlar kiritilgan. Masalan, 2000 yildagi hujjatda turistik xarajatlar hisoblanadigan boʻlsa, 2008 yildagi hujjatda ular bilan bir qatorda turistik isteʼmol hajmi ham aniqlanishi belgilangan. Maʼlumki, turistik isteʼmol

turistik xarajatlarga nisbatan kengroq maʼnoga ega. Boshqacharoq aytganda turistik xarajatlar turistik isteʼmolni bir qismidir. Ikkinchidan, 2000 yildagi hujjatda turistik mahsulotlarni hisoblash barcha davlatlar uchun bir xil metodologiyadan amalga oshirilishi kerak edi. 2008 yildagida esa har bir davlatga oʻz metodologiyasini qoʻllash imkoniyati berildi. Uchinchidan, yangi hujjatda konferensiya xizmati atamasi kiritildi. Toʻrtinchidan, turizmdagi bandlar soniga turistik korxonalarda ishlovchilar bilan bir qatorda turizm bilan mavsumiy band boʻlgan ishlovchilar ham kiritildi boʻldi va oxirgisi turizm sohasidagi kapitalni hisoblash metodologiyasi oʻzgartirildi, yaʼni turizm sohasidagi kapital deganda faqat turistik tashkilotlarni kapitali emas.

Xulosa. Turizm iqtisodiy faollikning muhim drayveriga aylandi – 2020 yildagi pandemiya sababli yuzaga kelgan keskin pasayishdan soʻng, 2022 va 2023 yillarda kirish turizmi boʻyicha isteʼmol keskin oʻsib,

25 trillion so'mga yetgani sektorning tiklanishdan tashqari, tez sur'atlarda rivojlanayotganini ham ko'rsatadi.

Bandlik ko'rsatkichlarining barqarorligi turizmning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi – hatto inqiroz davrida ham turizmga bandlik keskin kamaymasdan, 2023 yilga kelib 215,7 ming kishiga yetgani bu sohaning barqaror ish o'rinlarini yaratish salohiyatini namoyon etadi.

Davlat siyosatining ijobiy ta'siri sezilmoqda – turizm iste'moli va bandlikdagi tiklanish tendensiyasi so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, infratuzilma rivoji va xalqaro targ'ibot kompaniyalarining samarasini aks ettirib, sektorni ustuvor yo'nalish sifatida belgilashning to'g'riligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlari/ www.wto.org
2. W.Hunziker and K. Krapf // Grundriss der Allgemeinen Fremdenverkehrslehre. //-Zürich: Polygraphischer, 1942. pp. 45
3. A.F.Saidov// O'zbekistonda turizm// - T.: Istiqbol va muammolar, 1992.- 12 bet .
4. X.A Shodiev, I.Habibullaev //Statistika //Darslik –T.: Iqtisod-moliya, 2019 yil.- 25 bet
5. A.M. Hjalager, A review of innovation research in tourism. Tourism Management, 31(1), 2010.-pp 22.